

**“O‘zmetkombinat” AJ**  
**Kuzatuv Kengashining qarori bilan**  
**“TASDIQLANGAN”**  
( 2023-yil 15-aprel 6-sonli bayonnomasi)

**“O‘zmetkombinat” AJ bo‘yicha**  
**xavflarni boshqarish Siyosati**

Toshkent - 2023y.

## MUNDARIJA

1.	UMUMIY QOIDALAR .....	3
2.	QO‘LLASH SOHASI .....	3
3.	ATAMALAR va TA’RIFLAR .....	3
4.	XAVFLARNI BOSHQARISH SIYOSATINING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	5
5.	XAVFLARNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI .....	6
6.	XAVFLARNI BOSHQARISH KORPORATIV TIZIMINING TASHKILY TUZILMASI .....	6
7.	XAVFLARNI BOSHQARISH KORPORATIV TIZIMINING “UCH BOSQICHLI HIMOYA” (3 LoD) MODEL DOIRASIDAGI FAOLIYATI...	8
8.	XAVFLAR TASNIFI VA XAVFLARNI BOSHQARISH JARAYONI .....	10
9.	XAVFLARNI BOSHQARISH JARAYONINING KOMPONENTLARI VA BOSQICHLARI .....	11
10.	JAMIYATDA XAVFLARNI BOSHQARISHNI TASHKILY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN CHORALAR ..	15
11.	JAMIYATDA XAVFLARNI BOSHQARISH TIZIMINING MUSTAQIL BAHOLANISHI .....	16
12.	YAKUNIY QOIDALAR .....	16
14.	1– Ilova. Xavflar xaritasi formati .....	17
15.	2- Ilova. Xavf pasporti va mavjud xavfni baholash shakli .....	18
16.	3-ilova. Profilaktik tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida hisobot .....	19
17.	4 - Ilova. Xavflarning oldini olish Siyosatining buzilishi to‘g‘risida deklaratsiya .....	20

## I. UMUMIY QOIDALAR

**1.1.** “O‘zmetkombinat” AJning (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) xavflarni boshqarish bo‘yicha ushbu Siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Jamiyatning ichki (mahalliy) hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**1.2.** Siyosat o‘rnatadi:

- 1) xavflarni boshqarish sohasidagi maqsad va vazifalarni;
- 2) xavflarni boshqarishning tizimi va jarayonlarining asosiy tamoyillarini;
- 3) korporativ xavflarni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasini;
- 4) “Uch bosqichli himoya” (3 LoD) modeli doirasida korporativ xavflarni boshqarish tizimining ishlashini;
- 5) xavflarni tasniflash va ularni boshqarish jarayonining tarkibiy qismlarini;
- 6) Jamiyatda xavflarni boshqarishni tashkil etish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni;
- 7) Jamiyatda xavflarni boshqarishni mustaqil baholash tartibini.

**1.3.** Xavflarni boshqarish sohasidagi Siyosat xalqaro standartlar, modellar va tavsiyalarga muvofiq, xususan, COSO ERM, COSO Internal Control, Ichki auditorlar (IIA) Xalqaro Institutning “Uch bosqichli himoya (3 LoD) modeli”, ISO 31000:2018 “Xavflarni boshqarish. Prinsiplar va Boshqaruv” va ISO 37301:2021 “Muvofiqlikni boshqarish tizimlari – Qo‘llash bo‘yicha boshqaruvga qo‘yiladigan talablar” standartlari asosida ishlab chiqilgan.

**1.4.** Siyosat Jamiyat boshqaruvining barcha bo‘g‘imlarida xavflarni boshqarish jarayonlariga yagona yondashuvni ta‘minlaydi.

**1.5.** Jamiyatda xavflarni boshqarishning korporativ tizimini joriy etish: zarur infratuzilma va madaniyatni yaratish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, Jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xos bo‘lgan xavflarni boshqarishning mantiqiy va tizimli usullarini qo‘llash tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

**1.6.** Siyosat Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari, xususan, “O‘zmetkombinat” AJ ning Korrupsiyaga qarshi Siyosati, ichki va tashqi firibgarlikka qarshi kurashish Siyosati (firibgarlikka qarshi) bilan birgalikda majmuyi ko‘rib chiqilishi kerak.

## II. QO‘LLASH SOHASI

**2.1.** Siyosat barcha tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, xavf egalari va Jamiyatda xavflarni muvofiqlashtiruvchilar tomonidan ko‘rib chiqilishi va qo‘llanilishi uchun majburiydir.

**2.2.** Funktsional majburiyatlarni bajarish va belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, agar bu Jamiyatning xavflarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lsa, Jamiyat rahbariyati, har bir xavf egasi yoki xavflarni muvofiqlashtiruvchi ijrochi Siyosatda belgilangan qoidalarga amal qiladi.

## III. ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

**3.1.** Ushbu Siyosatda foydalanilgan atamalar va ta‘riflar quyidagi ma‘nolarga ega:

**Jamiyat Boshqaruvi organlari** - Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruv Kengashi;

**Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi** - Jamiyatning Oliy Boshqaruv organi;

**Kuzatuv kengashi** - Kuzatuv kengashi Jamiyatning Boshqaruv organi bo‘lib, Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Jamiyat Nizomi bilan Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilish vakolatiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno;

**Boshqaruv** – Jamiyatning joriy faoliyatini boshqaradigan hamda Kuzatuv Kengashi va aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan reja va vazifalarni amalga oshiruvchi kollegial ijroiya organi;

**Ichki audit xizmati** - Boshqaruv organlarini ishonchli axborot bilan ta'minlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tezkor tavsiyalar berish uchun ichki auditni amalga oshiradigan Jamiyatning tarkibiy bo'linmasidir;

**Komplyens - xizmati** – bu qonun va ichki qoidalar buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, bunday buzilishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni kamaytirish uchun mas'ul bo'lgan, **bevosita funksional javobgarlikka ega bo'lgan va Jamiyat Kuzatuv Kengashiga tashkiliy hisobot beradigan mustaqil bo'linmadir;**

**xavflarni boshqarish bo'limi** – Jamiyat Kuzatuv kengashiga bevosita funksional hisobot beruvchi va tashkiliy bo'ysunadigan, xavflarni boshqarish jarayonini muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan mustaqil bo'linma;

**xavf** - maqsadlarga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ehtimollik xarakterga ega hodisa;

**xavf egalari** – o'z xavflarini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun bevosita mas'ul bo'lgan va xavflarni boshqarish bo'linmasiga zarur ma'lumotlarni taqdim etuvchi Jamiyat tarkibiy bo'linmalari;

– **xavfni - muvofiqlashtiruvchilar** - Jamiyatyaning tegishli ravishda vakolat berilgan xodimlari, ular vakillik qiladigan tarkibiy bo'linmada xavflarni boshqarish amaliyotining tasdiqlangan tartiblariga muvofiqligi uchun javobgar ijrochilar;

– **COSO - Treadway komissiyasining homiy tashkilotlar qo'mitasi** (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission);

– **3 LoD (Three Lines of Defense, Three Lines)** – 2013-yilda Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (The IIA) tomonidan ishlab chiqilgan “Uch bosqichli himoya” modelidir. Ushbu model tegishli funksiyalar va mas'uliyatlarni qat'iy belgilash va farqlash orqali xavflarni boshqarish jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

– **xavflar xaritasi** - Jamiyat xavf-xatarlari potensial ta'sirining ko'lami va amalga oshirish ehtimoliga qarab grafik ko'rinishidir.

– **asosiy xavflar** - bu Jamiyat faoliyatiga, uning strategik maqsad va vazifalariga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflar;

– **kross funksional xavflar** - bu boshqaruv jarayonida turli funksional tarkibiy bo'linmalari egalari ishtirok etadigan xavflar;

– **profilaktik chora-tadbirlar** - xavf egalarining / xavfning yuzaga kelishi sabablariga tezkor ta'sir ko'rsatish uchun xavf paydo bo'lguniga qadar amalga oshiriladigan choralari;

– **tezkor chora-tadbirlar** - xavflarni amalga oshirishilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni tezlikda bartaraf etish va kamaytirish maqsadida xavf egalarining/xavflarni amalga oshirgandan keyin bajariladigan chora-tadbirlar egalarining rejalashtirilgan harakatlari;

– **xavflar reestri** – Jamiyat o'z faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan xavflar ro'yxati;

– **tavakkal qilish ishtahasi** - bu Jamiyat o'z maqsadlariga erishish jarayonida o'zi uchun maqbul deb hisoblaydigan xavf darajasi;

– **bag'rikenglik (tolerantlik) darajasi** (xavfga chidamlilik) – aniq ko'zlangan maqsadga erishish uchun qabul qilinadigan muayyan og'ish darajasi. Tolerantlik darajasi samarali monitoring o'tkazish va tavakkal qilish ishtahasi darajasidan oshib ketishini oldini olishga imkon beradi;

- **kontragentlar** – Jamiyat bilan xo‘jalik (iqtisodiy) munosabatlarga kirgan shaxslar (yuridik va jismoniy);
- **xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxs;
- **rahbariyat** - Jamiyatning yuqori mansabdor shaxslari - Boshqaruv raisi va uning faoliyat sohalari bo‘yicha o‘rinbosarlari;
- **tarkibiy bo‘linmalar** - tasdiqlangan tashkiliy tuzilmaga muvofiq Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari.

**3.2.** Amaldagi, lekin mazkur Siyosatda oshkor etilmagan ta’riflar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek Ishbilarmonlik odob-axloq kodeksi, Korporativ boshqaruv kodeksi va Jamiyatning boshqa ichki (mahalliy) me’yoriy hujjatlarida qo‘llaniladigan ta’riflarga mos keladi.

#### **IV. XAVFLARNI BOSHQARISH SIYOSATINING MAQSAD VA VAZIFALARI.**

##### **4.1.** Siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat xavflarni boshqarish sohasidagi faoliyatini tartibga solish va rasmiylashtirish;
- Jamiyatning strategik va operatsion barqarorligini ta’minlash;
- noqulay xavflar yuzaga kelgan taqdirda Jamiyatning yo‘qotishlarini kamaytirish;
- samarali integratsiyalashgan xavflarni boshqarishning yaxlit jarayonini yaratish;
- Jamiyat xavflarini aniqlash, baholash va boshqarish bo‘yicha yagona va izchil yondashuvlarni ishlab chiqish va qo‘llash, xavflar to‘g‘risida vertikal (boshqarish) va gorizontol (tajriba almashinuvi) haqida ma’lumot almashish tartib-taomillarini soddalashtirish;
- xavflarni boshqarish tartiblari va usullarini yagona standartlashtirilgan yondashuv asosida doimiy ravishda takomillashtirish;
- xavf - ishtaha va tolerantlik darajalari aniqlanishini va xavf - boshqaruvini samarali ishlashini ta’minlash.

##### **4.2.** Ushbu Siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat maqsadlariga erishishiga tahdid soluvchi hodisalarning oldini olish, ularning oqibatlarini maqbul darajaga tushirish;
- xavflarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun axborot bazasini kengaytirish;
- xavflarga qarshi kurashishning samarali rejalarini yaratish;
- boshqaruv jarayoni va biznesni rejalashtirish jarayonlarining ajralmas qismi sifatida xavflarni boshqarishning tizimli xususiyatlarini qo‘llab quvvatlash;
- samarali ichki nazorat muhiti hamda ichki va tashqi hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, qonunlar va me’yoriy hujjatlarga rioya etilishiga ko‘maklashish;
- manfaatdor tomonlarga Jamiyat o‘ziga tegishli xavflarni samarali boshqara olishiga asosli kafolatlar berish;
- Jamiyat mavjud resurslaridan samarali foydalanishi va taqsimlanishiga ko‘maklashish;
- Komplayens xavflar boshqarish samaradorligini qo‘llab quvvatlash, shu jumladan:
  - kerakli va zarur resurslar bilan ta’minlash;
  - xavflarning oldini olish maqsadida malakali kadrlarni tanlash va tayyorlash;
  - yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarga asoslangan yondashuv asosida xodimlarni o‘qitishni tashkil etish;

- xodimlarni tashkilotning xavflarni boshqarish Siyosatidan xabardor bo'lishini ta'minlash.

## V. XAVFLARNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI.

**5.1.** Jamiyat xavflarni boshqarishning quyidagi asosiy tamoyillarini belgilaydi:

**Yaxlitlik** - xavflarni boshqarishning korporativ tizimi kontekstida Jamiyatning umumiy xavflari elementlarini e'tibor bilan ko'rib chiqish;

**Ochiq - oshkoralik** - xavflarni boshqarishning korporativ tizimini avtonom yoki alohida deb hisoblashni taqiqlash;

**Strukturaviylik** (tuzilmaviylik) - xavflarni boshqarishning majmuiy korporativ tizimi aniq tuzilmaga ega;

**Uslubiy asosning birligi** - xavflarni boshqarish jarayonlari Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari uchun yagona yondashuvlar va standartlar asosida amalga oshiriladi;

**Vakolatlarni ajratish (taqsimlash)** - xavflarni boshqarish jarayonlari ishtirokchilari o'rtasidagi funksiyalar va majburiyatlarni aniq belgilash;

**Xabardorlik** - xavflarni boshqarish obyektiv, ishonchli va dolzarb ma'lumotlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi;

**Uzluksizlik** - xavflarni boshqarish jarayonlari doimiy ravishda to'xtovsiz amalga oshiriladi;

**Sikllik (doimiy takrorlanish)** - xavflarni boshqarish jarayonlari asosiy tarkibiy qismlarining (komponentlarini) doimiy takrorlanishini namoyon bo'lishidan tashkil topgan;

**Doimiy takomillashtirish** – strategik maqsadlarni, tashqi muhitdagi o'zgarishlarni va jahon amaliyotidagi innovatsiyalar hamda, axborot tizimlari va texnologiyalarini o'z ichiga olgan holda xavflarni boshqarish bo'yicha ishlarni takomillashtirish;

**Xavflarga yo'naltirilganlik** - xavflarni boshqarish tizimini tashkillashtirish barcha xavflarning xususiyatlarini ahamiyatiga qarab, ularni darajalash bilan o'z vaqtida aniqlashga va baholashga qaratilgan bo'lib, bu cheklangan resurslar sharoitida xavflarga samarali va oqilona ta'sir ko'rsatishni tashkil etishning zarur shartidir;

**Iqtisodiy maqsadlarga muvofiqlik** - xavflarni boshqarish tizimining vazifalariga ajratilgan resurslar va xarajatlar boshqaruv / nazorat ostida bo'lgan xavflarni mos ravishda kamaytirish bilan iqtisodiy jihatdan oqlanadi.

## VI. XAVFLARNI BOSHQARISH KORPORATIV TIZIMINING TASHKILIY TUZILMASI.


**6.1** Jamiyatda xavflarni boshqarish korporativ tizimining tashkiliy tuzilmasi vertikal va gorizontal ravishda axborot oqimini shakllanishini ta'minlaydi.

**6.2.** Pastdan yuqoriga vertikal yo'nalaishda yetkaziladigan ma'lumotlar Jamiyatning boshqaruv organlariga: joriy faoliyati, ya'ni, faoliyat jarayonida aniqlangan xavflar, ularni baholash, nazorat qilish, javob berish usullari va ularni boshqarish darajasi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadi.

**6.3.** Yuqoridan pastgacha yuboriladigan qarorlar Jamiyat boshqaruv organlari tomonidan qarorlar qabul qilish va xavflarni boshqarishi bo'yicha hujjatlarni tasdiqlash orqali qo'yilgan maqsad, strategiya va vazifalarni Jamiyatning tarkibiy bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlaydi.

**6.4.** Axborotni gorizontal ravishda uzatish tarkibiy bo'linmalar va xavf koordinatorlarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi.

**6.5.** Jamiyatning korporativ xavflarni boshqarish tizimining tuzilishi quyidagi organlar va bo‘linmalarni jalb qilgan holda bir necha bo‘g‘imlarda taqdim etilgan (**1-rasm**):



1-rasm. Jamiyatda xavflarni boshqarish korporativ tizimining tashkiliy tuzilmasi.

**6.6.** Jamiyatda xavflarni boshqarish korporativ tizimdagi funktsiya va majburiyatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- **Kuzatuv Kengashi** xavflarni hisobga olgan holda Jamiyatning strategik rivojlanishi uchun javobgardir va tegishli qarorlar qabul qiladi;

- **Boshqaruv** xavflarni boshqarish Siyosatini aks ettiruvchi “xavflarni anglash” madaniyatini shakllantirish uchun mas’uldir, shuningdek, Kuzatuv Kengashi tomonidan o‘ziga yuklangan vakolatlar doirasida korporativ xavflarni boshqarish tizimi faoliyati samaradorligi uchun javobgardir;

- **Xavflarni boshqarish bo‘limi** Jamiyatda xavflarni boshqarish jarayonini muvofiqlashtirish uchun javobgardir;

- **Xavf egalari** o‘z xavf va imkoniyatlarini boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va xavflarni boshqarish bo‘linmasiga zarur ma’lumotlarni taqdim etish uchun bevosita javobgardirlar;

- **Xavf - koordinatorlari** o‘zlari vakillik qiladigan tarkibiy bo‘linmada xavflarni boshqarish amaliyotining, xavflarni boshqarish korporativ tizimining tasdiqlangan tartib-qoidalariga muvofiqligi uchun javobgardirlar;

- **Tarkibiy bo‘linmalarning** har bir xodimi xavflarni boshqarish va Jamiyat uchun yuzaga kelayotgan muhim xavflarni o‘z vaqtida aniqlash uchun javobgardirlar;


- **Ichki audit xizmati** Jamiyat Kuzatuv Kengashiga baholash to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish maqsadida Jamiyatdagi korporativ xavflarni boshqarish tizimini tahlil qilish (baholash) uchun mas’uldir, shuningdek, korporativ xavflarni boshqarish tizimi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

## VII. XAVFLARNI BOSHQARISH KORPORATIV TIZIMINING “UCH BOSQICHLI HIMOYA” (3 LoD) MODELI DOIRASIDAGI FAOLIYATI.


### 7.1. “Uch bosqichli himoya” (3LoD) modeli tushunchasi

Jamiyatning korporativ xavflarni boshqarish tizimi “Uch bosqichli himoya” modeliga asoslanadi (**2-rasm**. “Uch bosqichli himoya” modeli va **3-rasm**. “Uch bosqichli himoya” modeli doirasidagi ishtirokchilar va boshqaruv bo‘linmalari majburiyatlari):

2-Rasm. “Uch bosqichli himoya” modeli



3-rasm. “Uch bosqichli himoya” modeli doirasidagi ishtirokchilar va boshqaruv bo‘linmalari majburiyatlari.



**7.1.1. 1-chi bosqich himoyasi** ichki nazorat tartib-qoidalarini tizimining samaradorligini, tuzilmaviy bo‘linmalar tomonidan xavflarning muntazam monitoringini va nazoratini ta’minlaydi.

Tarkibiy bo‘linmalar xavflarning egalari bo‘lib, xavflarni aniqlash, boshqarish, kamaytirish, asosiy xavflarni tahlil qilish va hisobot berish uchun javobgardir. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari nazorat qilinadigan biznes-jarayonlarda nazorat tartib-qoidalarini ishlab chiqishlari, joriy etishlari va ishlashini ta’minlashlari shart. Har bir tarkibiy bo‘linma xavflarni boshqarish bo‘limi bilan o‘zaro hamkorlik qilish va xavflarni boshqarish amaliyotining o‘zlari vakili bo‘lgan tarkibiy bo‘linmada tasdiqlangan qoidalar va tartiblarga muvofiqligi uchun mas’ul bo‘lgan xavf - koordinatorlarini tayinlaydi.

Tarkibiy bo‘linmalarining majburiyatlari/funksiyalari:

- Bo‘linma tomonidan amalga oshiriladigan biznes-jarayon(lar)ga xos bo‘lgan xavflarni aniqlash va baholash;



- biznes jarayonlari xavflarini boshqarish bo'yicha nazorat tartib-qoidalarini yaratish va amalga oshirish;
- muayyan biznes jarayonlarini tartibga soluvchi Siyosat va tartiblarni tayyorlash;
- xavf darajasini va nazorat tartib-qoidalarining samaradorligini monitoring qilish.

**7.12. 2-chi bosqich himoyasi** birinchi bosqich himoyasini kuzatib boradi va xavflarni boshqarishni muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.


Jamiyat xavflarni boshqarish bo'linmasi xavflarni boshqarish bo'yicha uslubiy yondashuvni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, standartlarni belgilaydi va Jamiyatning xavflarni boshqarish sohasidagi harakatlarini, shu jumladan tegishli jarayonlar, texnologiyalar va madaniyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu bo'linmaning vakolatiga xavflarni o'z vaqtida aniqlash va baholash uchun javobgarlik kirmaydi, chunki bu birinchi bosqich himoyasi bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

2-chi bosqich himoya boshqarish, xavfsizlik va komplayens uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalarni o'z ichiga oladi. Ular birinchi bosqich himoyasi bilan bog'liq nazorat tartib-qoidalarini ishlab chiqish va ishlatish jarayonining doimiy monitoringini ta'minlaydi, xavflarni boshqarish masalalari bo'yicha maslahat beradi va Jamiyat xodimlarini o'qitadi.

Tarkibiy bo'linmalarning majburiyatlari/funksiyalari:

- muayyan biznes jarayonlarini tartibga soluvchi Siyosat va tartiblarni amalga oshirishda uslubiy yordam;
- komplayens nazorat qilish va xavflarni boshqarish uslubiyotini ishlab chiqish;
- komplayens va xavflarni boshqarishga qaratilgan nazorat tartib-qoidalarini amalga oshirishda rahbariyatga yordam berish;
- nazorat tartib-qoidalarining bajarilishini, muayyan biznes jarayonlarini tartibga soluvchi siyosat va tartiblarning qo'llanilishini monitoring qilish;
- alohida nazorat tartib-qoidalarini bajarish (agar, zaruriyat tug'ilsa).

#### 4-Rasm. 1 va 2 himoya bosqichlarini solishtirish:



**7.1.3. 3-chi himoya bosqichi** xavflarni boshqarish tizimining samaradorligini nazorat qiladi va baholaydi.

Ichki audit xizmati xavflarni boshqarish bo'yicha mavjud jarayonlar sifatini mustaqil baholashni amalga oshiradi, nomutanosibliklarni aniqlaydi va xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi. Kuzatuv Kengashi ushbu xulosalarni kelgusidagi harakatlar uchun qo'llanma sifatida qabul qiladi. Ichki audit xizmati birinchi va ikkinchi himoya bosqichlarining funksiyalarini nazorat qiladi, shuningdek, xavflarni boshqarish

tizimini takomillashtirish bo'yicha isloh qilish choralarning amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Ichki audit o'z faoliyatida muayyan yo'nalish sohalarida ichki nazorat tizimini monitoring qiluvchi va baholovchi ichki nazorat tizimining boshqa subyektlari ishining natijalaridan foydalanishi mumkin.

Ichki audit xizmatining vazifalari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Jamiyatning ichki normativ hujjatlari bilan belgilanadi.

## VIII. XAVFLAR TASNIFI VA XAVFLARNI BOSHQARISH JARAYONI

**8.1.** Xavflarni tasniflash uchun quyidagi toifalar qo'llaniladi:

**1) strategik xavf** - Jamiyat faoliyati va rivojlanish strategiyasini belgilashi va amalga oshirishidagi o'zgarishlar yoki xatolar (kamchiliklar), siyosiy muhitning o'zgarishi, mintaqaviy kon'yunktura, sanoatning tanazzulga uchrashi va tizimli xarakterga ega boshqa tashqi omillar tufayli yo'qotish xavfi;


**2) operatsion xavf** - noaniq va noto'g'ri ichki jarayonlar, xodimlar va tizimlarning harakatlari yoki tashqi hodisalar natijasida yo'qotish xavfi (shuningdek, sog'liq va xavfsizlik / ekologik xavflarni ham o'z ichiga oladi);

**3) moliyaviy xavf** - Jamiyat kapitali tarkibi, rentabelligining pasayishi, valyuta kursining o'zgarishi, kredit xavflari va foiz stavkalarining o'zgarishi va boshqalar bilan bog'liq xavflarni o'z ichiga oladi;

**4) komplayens xavf** - Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek, ichki qoidalar va tartiblar talablariga rioya qilmaslik oqibatidagi yo'qotishlar xavfi.

**8.2.** Xavflarni boshqarish doimiy, dinamik, uzluksiz va sikllik (takrorlanuvchi) jarayon bo'lib, uning doirasida ma'lumotlar almashinuvi va ishtirokchilari o'rtasida uzluksiz aloqa amalga oshiriladi.

Jamiyatdagi xavflarni boshqarish jarayonining jadval diagrammasi **5-rasmda** ko'rsatilgan.



**5-rasm.** Xavflarni boshqarish jarayoni

Xavflarni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- xavflarni aniqlash (identifikatsiya qilish);
- tahlil qilish (xavflarni baholash);

- xavflarni boshqarish (asosiy xavflarni boshqarish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni rejalashtirish va ularni amalga oshirish);
- xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni monitoring qilish.

## **IX. XAVFLARNI BOSHQARISH JARAYONINING KOMPONENTLARI VA BOSQICHILARI**

### **9.1. ICHKI va TASHQI MUHIT**

**9.1.1.** Ichki muhit Jamiyatning xavflarga umumiy munosabatini, xodimlarni xavflarni qanday qabul qilishlari va ularga qanday munosabatda bo'lishlarini belgilaydi. Ichki muhit xavflarni boshqarish jarayonining barcha boshqa tarkibiy qismlari, shu jumladan xavflarni boshqarish falsafasi, xavf - ishtahasi, boshqaruv organlari tomonidan nazorat, axloqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlar, xodimlarning malakasi va mas'uliyati, Jamiyatning tuzilmasi, uning inson, moliyaviy va boshqa resurslari bilan belgilanadigan imkoniyatlaridir.

**9.1.2.** Jamiyat faoliyati xodimlarning xavflarni tushunishlari va xavflarni boshqarish bo'yicha mas'uliyatlarini oshiradigan ichki muhitni yaratishga qaratilgan. Ichki muhit Jamiyat faoliyatining quyidagi tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi kerak:

qarorlar qabul qilishda xavflarning barcha shakllarini aniqlash va hisobga olish, shuningdek, Jamiyat rahbariyati tomonidan xavflarni ko'rishga majmuiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashi;

Jamiyatning axloqiy qadriyatlarini faol va aniq joriy etish va rahbariyat tomonidan rioya qilinishi;

boshqaruv ierarxiyasining tegishli bo'g'imlarida (Jamiyat, tarkibiy bo'linmalar va boshqalar) xavflarga egalik qilish va xavflarni boshqarishda javobgarlik hissini qo'llab-quvvatlash; xodimlar faoliyatining Jamiyatning ichki siyosati va tartib-qoidalariga muvofiqligini kuzatish;

xodimlar faoliyatining Jamiyatning ichki siyosati va tartib-qoidalariga muvofiqligini kuzatish;

muhim xavflar va xavflarni boshqarish tizimining kamchiliklari haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

xavflarni boshqarish Siyosati va protseduralari majburiy ekanligini tushunish;

xavflarni boshqarish sohasidagi huquqbuzarliklarga javob berishda qoidabuzarning egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar qoidabuzarga nisbatan izchillik va qat'iylik bilan chora ko'rilishini ta'minlash.

**9.1.3.** Jamiyatning tashqi muhit (biznes tuzilmalari, ijtimoiy, tartibga soluvchi, hamda Davlat va moliya organlari) bilan munosabatlari ichki muhitda namoyon bo'ladi va uning shakllanishiga ta'sir qiladi.

**9.1.4.** Jamiyatning tashqi muhiti o'z tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lib, boshqa narsalar qatorida o'zaro bog'liq bo'lgan sanoatning turli tomonlarini o'z ichiga oladi. Sanoat darajasida tashqi muhit strategik xavflarning potentsial manbai hisoblanadi.

Jamiyatning tashqi muhiti Jamiyatning operatsion samaradorligi va operatsion maqsadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi hodisalarni amalga oshirish natijasida operatsion xavflarning potentsial manbai hisoblanadi.

## **9.2. JAMIYATNING ASOSIY XAVFLARGA TOLERANTLIK DARAJASI VA XAVF - ISTAHASINI ANIQLASH**

**9.2.1.** Jamiyat strategik maqsadlariga (faoliyatining strategik yoʻnalishlari) erishishi uchun qabul qilishga tayyor boʻlgan xavf (tavakkal) ishtahasini aniqlaydi. Xavf - ishtahasi tashkilotda resurslarni toʻgʻri taqsimlovchi jarayonlarni tashkil etishga va xavflarni samarali monitoring qilish va ularga javob berish uchun zarur boʻlgan infratuzilmani yaratishiga taʼsir qiladi.

**9.2.2.** Jamiyatning xavf ishtahasini konsolidatsiyalangan asosda aniqlash Moliya departamenti tomonidan xavflarni boshqarish boʻlimi bilan birgalikda amalga oshiriladi va Jamiyat Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Jamiyat uzoq muddatli strategik maqsadlariga va kutilayotgan strategik natijalariga muvofiq belgilanadigan asosiy faoliyat koʻrsatkichlari xavf - ishtahasi darajasini aniqlash uchun asos hisoblanadi.

**9.2.3.** Jamiyat strategik maqsadlari oʻzgargan taqdirda xavf ishtahasi darajasini, shuningdek, bunday maqsadlarga erishishi uchun Jamiyat qabul qilishga tayyor boʻlgan xavf darajasini oʻrganib chiqadi va Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun tegishli takliflarni kiritadi.

**9.2.4.** Samarali monitoringni amalga oshirish va tavakkal qilish ishtahasi darajasidan oshib ketishining oldini olish maqsadida Jamiyat asosiy xavflarga nisbatan bardoshlik darajalarini qoʻllaydi.

**9.2.5.** Jamiyat tomonidan xavfga chidamlilik darajasini hisoblash uchun qoʻllaniladigan usul sanoat uchun qabul qilingan moliyaviy koʻrsatkichlarning ogʻishlarini baholashga asoslanadi (EBITDA, pul oqimi (Cash-Flow), daromadlar, sof aylanma mablagʻlari va boshqalar). Moliyaviy koʻrsatkichlar mos keladigan ogʻish diapazonlariga koʻpaytiriladi, moliyaviy koʻrsatkichning maksimal ogʻishi Jamiyatni xavflarga nisbatan tolerantlik darajasining maksimal hajmi sifatida aniqlanadi.

**9.2.6.** Asosiy xavflar uchun tolerantlik darajasi xavf egalari tomonidan ikkita asosiy yondashuv asosida belgilanadi:

- subyektiv yondashuv;
- obyektiv yondashuv.

**9.2.7.** Jamiyat xavflarni boshqarish boʻyicha Jamiyatning ichki hujjatlarida tavsiflangan asosiy talablariga, xususan Xavflarni boshqarish boʻyicha qoʻllanmaga majburiy rioya qilgan holda oʻzining tavakkalchilik ishtahasi va asosiy xavflarga bardoshlilik darajasini belgilaydi.

## **9.3. XAVFLARNI ANIQLASH**

**9.3.1.** Xavflarni aniqlash - Jamiyatning rejalashtirilgan maqsadlariga erishishi va belgilangan vazifalarni amalga oshirish qobiliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan alohida jamlangan hodisalar taʼsirini aniqlash, shuningdek oʻz yoʻnalishni aniqlashi va xavflarni boshqarish jarayonini takomillashtirishi zaruriyatidir.

**9.3.2.** Xavflarni aniqlash uchun maqsad va vazifalar, sanoat va xalqaro taqqoslashlar, seminarlar va muhokamalar, intervyular, anketalar, SWOT - tahlillari, aqliy hujum, hisobotlarni tahlil qilish kabi turli usullar va vositalarning, hamda audit va boshqa tekshiruvlar, sodir boʻlgan yoʻqotishlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bazalari va boshqalar asosida xavflarni aniqlash kombinatsiyasi qoʻllaniladi.

**9.3.3.** Jamiyat oʻz faoliyatida duch keladigan va aniqlangan xavflar – xavflar reestri shaklida tizimlashtiriladi. Xavflar reestrini aniqlash va shakllantirish jarayoni xavflarni boshqarish boʻlimi tomonidan bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

#### **9.4. XAVFLARNI BAHOLASH**

**9.4.1.** Xavf va Imkoniyatlarni baholash jarayoni Jamiyat faoliyati, strategik maqsad va vazifalariga yetishishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy xavflarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu xavflar Jamiyat Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqishi uchun taqdim etiladi va Kuzatuv Kengashi kelgusida ushbu xavflarni boshqarish va nazorat qilish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

**9.4.2.** Xavflarni baholash har yili Jamiyatning barcha bo'g'imlarida amalga oshiriladi. Zaruriyat tug'ilanda, Jamiyat faoliyatida va atrof-muhitda sezilarli o'zgarishlar bo'lsa, Jamiyatning aktual xavf profilini ta'minlash uchun bir necha marotaba baholash o'tkazilishi kerak.

**9.4.3.** Dastlab, xavf egalari tomonidan xavflarni baholash sifat jihatidan amalga oshiriladi, keyin, agar hisoblash mumkin bo'lsa, miqdoriy baholash amalga oshirilishi mumkin.

**9.4.4.** Barcha aniqlangan va baholangan xavflar, xavf xaritasida jadval ko'rinishida aks ettiriladi.

#### **9.5. XAVFLARNI BOSHQARISH (XAVFLARGA JAVOB)**

**9.5.1.** Xavflarni boshqarish tasdiqlangan strategiyalar, rivojlanish rejalari va boshqa ichki hujjatlardan kelib chiqadigan ma'lum maqsadlar, Jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida amalga oshirilishi kerak. Jamiyat yiliga kamida bir marta xavf ishtahasini aniqlashi va xavflar reestrini shakllantirishi zarur.

**9.5.2.** Jamiyat xavf-xatarlarga javob berish usullarini belgilaydi va barcha tarkibiy bo'linmalar uchun majburiy bo'lgan asosiy xavflarni boshqarish bo'yicha yillik harakatlar rejalarini ishlab chiqadi.

**9.5.3.** Xavf egalari xavflarni boshqarish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgardirlar.

**9.5.4.** Xavflarni boshqarish usullarini belgilashda Jamiyat tanlovga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni hisobga olishi kerak:

- xavf - ishtahasi;
- xavflarni boshqarishning muayyan usuli bilan bog'liq xarajatlar va foydalarni tahlil qilish.

**9.5.5.** COSO metodologiyasiga muvofiq, xavfga javob berish usullarini tanlash va qoldiq xavfning maqbul darajasini ta'minlash uchun xavflarni boshqarish bo'yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqish quyidagi javob strategiyalarini o'z ichiga oladi:

1) xavfni kamaytirish (kamaytirish va nazorat qilish) - xavfni amalga oshirish ehtimoli darajasini pasaytirish va xavfni amalga oshirish sabablari yoki oqibatlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan, ya'ni xavfni amalga oshirishda profilaktika choralari va rejalashtirish tadbirlarini qo'llash orqali xavfga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar darajasini pasaytirish;

2) xavfni qabul qilish (saqlash), bu uning darajasi Jamiyat uchun maqbul ekanligini va Jamiyat uning vujudga kelishi imkoniyatini qabul qiladi, shuningdek, xavfni minimallashtirish choralari ko'rilgandan so'ng qoldiq xavfni qabul qilish mumkin;

3) xavflarni o'tkazish (moliyalashtirish, uchinchi shaxsga o'tkazish) - xavflarni boshqa tomonga o'tkazish / bo'lish yoki qisman xavfni boshqa tomonga o'tkazish, shu jumladan turli xil mexanizmlardan (shartnomalar, sug'urta shartnomalari, tuzilmani aniqlash) foydalanish orqali mas'uliyat va majburiyatlarni taqsimlash;

4) xavfning manbai bo'lgan harakatni davom ettirish yoki davom ettirmaslik to'g'risida qaror qilish yo'li bilan xavfdan qochish (xavfdan qochish);

5) xavfni qo‘shib olish - faoliyat samaradorligini oshirish uchun ortib borayotgan xavfni qabul qilish.

## **9.6. NAZORAT HARAKATLARI (NAZORAT VOSITALARI)**

**9.6.2.** Nazorat faoliyati - bu xavflarni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta‘minlashga yordam beradigan Siyosat va tadbirlardir. Nazorat faoliyati Jamiyatning barcha bo‘g‘imlaridagi biznes jarayonlariga tadbiriq qilingan. Nazorat faoliyati tasdiqlash, ruxsat berish, tekshirish, solishtirish, tranzaksiyalarni ko‘rib chiqish, aktivlarni himoya qilish va majburiyatlarni ajratish kabi keng ko‘lamli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

**9.6.3.** Biznes-jarayonlarni tahlil qilish va qo‘shimcha nazorat choralarni joriy etish zarurati va maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun javobgarlik biznes-jarayonlarning egalari - Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

**9.6.4.** Xavflar to‘g‘risida muntazam hisobot berish asosida Jamiyatda mavjud xavflar va imkoniyatlarga javob berish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazorat qilanadi.

## **9.7. AXBOROT VA ALOQA**

**9.7.1.** Jamiyatdagi xavflarni boshqarish tuzilmasi vertikal va gorizontal ma‘lumotlarning to‘liq va aniq oqimini ta‘minlaydi. Jamiyatning xavflari to‘g‘risida muntazam ma‘lumot almashish jarayonining maqsadlari quyidagilardan iborat:

□ xavf egalari ma‘lum bir muhim xavflarni boshqarish bo‘yicha shaxsiy javobgarlikni yuklash;

□ Jamiyatning tegishli bo‘g‘imlarida boshqarilishi kerak bo‘lgan barcha xavflar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Kuzatuv Kengashi e‘tiboriga o‘z vaqtida yetkazish;

□ xavflarni boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi ma‘sul ijochilar e‘tiboriga ularning tegishli tadbirlarni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni (shu jumladan kutilayotgan natijalar, muddatlar, resurslar va boshqalar) o‘z vaqtida yetkazish;

□ Jamiyatning o‘zaro funksional xavflarini boshqarish jarayonida samarali axborot almashinuvini ta‘minlash.

**9.7.2.** Jamiyat xavflarni boshqarish bo‘yicha ma‘lumotlarni sheriklar, kreditorlar, tashqi auditorlar, reyting agentliklari va boshqa manfaatdor tomonlarga (shu jumladan yillik hisobotning bir qismi sifatida) yetkazadi, shu bilan birga oshkor etilgan ma‘lumotlarning batafsil darajasi ularning tabiati va Jamiyat faoliyati ko‘lamiga mos kelishini ta‘minlaydi.

## **9.8. MONITORING**

**9.8.1.** Jamiyatda xavf va imkoniyatlarni boshqarish tizimining samaradorligi (shu jumladan mavjud boshqaruv usullari va nazoratini) uzluksiz nazorat qilanadi, zaruriyat bo‘lganda o‘zgartiriladi va takomillashtiriladi. Monitoring bir yilda kamida bir marotaba muntazam ravishda amalga oshiriladi.

**9.8.2.** Korporativ xavflarni boshqarish tizimining monitoringi ushbu tizimning mavjudligi hamda, uni tarkibiy qismlarining faoliyatini ham baholaydi.

**9.8.3.** Monitoring Siyosatning amalga bajarilishi, xavflarni boshqarish tizimining tartiblari va faoliyatini doimiy kuzatish va maqsadli tekshiruvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Maqsadli tekshiruvlarning ko‘lami va takroriyliigi xavflarni baholashga va doimiy monitoring samaradorligiga bog‘liq. Korporativ xavflarni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar Kuzatuv Kengashiga tasdiqlash uchun kiritilishi kerak.

**9.8.4.** Asosiy xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring qilish rejasi asosiy xavflarni boshqarish bo'yicha harakatlar rejasining ajralmas qismi hisoblanadi va monitoring muddatlarini belgilaydi.

**9.8.5.** Xavflarni boshqarish bo'limi Kuzatuv Kengashi tomonidan xavf va imkoniyatlarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar rejaları tasdiqlanganidan keyin har bir harakatni amalga oshirish muddatlariga muvofiq chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

**9.8.6.** Xavflarni boshqarish bo'limi xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring qilish maqsadida xavf egalari bilan xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning borishi to'g'risida ma'lumot so'raydi, va xavf egalari bilan birgalikda olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi va tahlil natijalarini Boshqaruv va Kuzatuv Kengashiga taqdim etadi.

**9.8.7.** Joriy xavflar monitoringi doirasida Jamiyat xavf-xatarlarni oldini olish siyosatini amalga oshiradi va xavflar nazoratini maqbul darajada ushlab turish uchun profilaktika choralarni ko'radi (ushbu Siyosatning 3-ilovasi). Profilaktik chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatning xavflarga duchor bo'lishini baholash;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan hodisalar va ularning Jamiyatga ta'sirini hisobga olish va tahlil qilish;
- xavflarni kamaytirish/oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;
- nazorat qilish vositalari samaradorligini baholash.

**9.8.8.** Xavf monitoringi tarkibiy bo'linmalar darajasida ham (xavf egalari va xavflar bo'yicha koordinatorlar tomonidan) va umuman Jamiyatdagi vakolatli bo'linma tomonidan amalga oshiriladi.

**9.8.9.** Xavflarning oldini olish siyosati buzilgan yoki xavf-xatar hodisasi yuzaga kelgan taqdirda, xavf egalari va xavf - koordinatorlari zararni minimallashtirish maqsadida, salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan tezkor choralarni amalga oshiradilar.

**9.8.10.** Tarkibiy bo'linmalar (xavf egalari va xavf - koordinatorlari) qonunbuzarlik va/yoki sanksiya xavfi bo'lganda hodisaning yuzaga kelishi aniqlanganligi zahoti, Komplayens - xizmatiga xavflarning oldini olish Siyosatining buzilishi to'g'risidagi deklaratsiyani (ushbu Siyosatda 4-ilova) taqdim etadilar.

## **X. JAMIYATDA XAVFLARNI BOSHQARISH TASHKILY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN CHORALAR.**

**10.1.** Jamiyatning har bir tarkibiy bo'linmasida xavflarni boshqarish bo'yicha tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida xavflar - muvofiqlashtiruvchisi (koordinatorlar) tayinlanadi, uning vazifalariga o'z tarkibiy bo'linmasida xavflarni boshqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish va Jamiyatdagi xavflarni boshqarish bo'limi bilan hamkorlik qilish kiradi.

**10.2.** Jamiyatdagi xavf va imkoniyatlarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish uchun yangi xavf - koordinatorlarini tayyorlash va barcha xavf - koordinatorlarini Jamiyatda xavf va imkoniyatlarni boshqarishni tashkil etish bo'yicha davriy ravishda qo'shimcha treninglar (kamida, har yili bir marotaba) o'tkaziladi. Trening o'quv kurslari tugagandan so'ng, barcha xavf - koordinatorlari o'z bilimlarini tasdiqlash uchun nazorat testidan o'tadilar.

**10.3.** Jamiyat xavf - koordinatorlarining tarkibiy bo'linma va Jamiyat darajasida xavflarni boshqarish faoliyatini tashkil etishdagi hissasini hisobga oladi va xavflar bo'yicha muvofiqlashtiruvchilar uchun tabaqalashtirilgan moliyaviy haq to'lash tizimini joriy qiladi:

alohida xavflarni boshqarish bo'yicha faoliyati uchun va tarkibiy bo'linmaning boshqa funksional faoliyatida qo'shgan hissasi va h.k.

## **XI. JAMIYATDA XAVFLARNI BOSHQARISH TIZIMINI MUSTAQIL BAHOLANISHI.**

**11.1.** Xavflarni boshqarish tizimining samaradorligi ichki va/yoki tashqi auditorlar yoki mustaqil ekspertlar tomonidan mustaqil baholash natijalari bilan tasdiqlanadi.

**11.2.** Xavflarni boshqarish tizimi Jamiyat tomonidan muntazam ravishda baholanadi. Xavflarni boshqarish tizimining samaradorligi baholash har yili Ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

**11.3.** Jamiyat o'z xohishiga ko'ra, lekin har uch yilda bir martadan ko'p bo'lmagan holda, xavflarni boshqarish tizimini mustaqil baholashga tashqi tomonlarni jalb qilishi mumkin.

**11.4.** Xavflarni boshqarish bo'yicha tizim faoliyatini baholash xavflarni boshqarish bo'yicha real jarayonlarning ushbu Siyosat qoidalariga muvofiqligini tekshirishga asoslanadi.

**11.5.** Jamiyatning xavflarni boshqarish tizimini tahlil qilish (baholash) o'tkaziladigan mezonlari ushbu Siyosat qoidalarini aks ettirishi va xavflarni boshqarish jarayonlarining yuqori sifat darajasini tavsiflovchi quyidagi mezon guruhlarini o'z ichiga olishi kerak:

- 1) Jamiyatda xavflarni zamonaviy va majmuiy tushunishning mavjudligi;
- 2) qabul qilinadigan xavflarning belgilangan darajasida ushlab turishning mavjudligi (tolerantlik va Jamiyatning xavf - ishtahasi).


## **XII. YAKUNIY QOIDALAR**

**12.1.** Siyosat Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**12.2.** Zaruriyat tug'ilganda, Siyosat qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Boshqaruv xavflarni boshqarish bo'limi ko'magida Siyosatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi.



## X. 1 - Ilova. Xavflar xaritasi formati



Xavfni kamaytirish choralari ko'rilmagan yoki chora ko'rish mumkin emas



Xavfni kamaytirish choralari qisman amalga oshirilgan



Xavfni kamaytirish choralari ko'rilgan

## 2- Ilova. Xavf pasporti va mavjud xavfni baholash shakli

T/r	Xavf pasporti (xavf profili xaritasi)							
	Xavf	II daraja xavfi	III daraja xavfi	IV daraja xavfi	Potensial xavf sabablari	Xavfni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlari tavsifi	Asosiy xavf kursori	Xavf egasi
	Tasnifi bo'yicha xavf guruhi							

Mavjud xavfni baholash			
Xavflarni bir yildavomida takrorlanish chastotasi	Zarar miqdori		Expected Loss (EL), USD
	Zarar miqdori USD	Tushuntirish	

### 3-ilova. Profilaktik tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida hisobot

#### Profilaktik tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida hisobot

	Xavf nomi	Profilaktik chora - tadbirlar	Chora tadbirlar bajarilishi uchun ma'sul ijrochi/tarkibiy bo'linma	Bajariladigan muddati	Bajarilgan – Xa, Bajarilmagan – Yoq, Qo'llab bolmaydi	Xavf egalari tomonidan bajarilgan profilaktik tadbirlar/ bajarilmaganligining sababi	Bajarilayotgan tadbirlar samaradorligi to'g'risida ma'lumot	
							Xavf bilan bog'liq ko'rsatkichlar <sup>1</sup>	Profilaktik tadbirlarni amalga oshirishning tabiati <sup>2</sup>
1	Xavf 1	Chora -tadbirlar 1						
		Chora -tadbirlar 2						
		Chora -tadbirlar 1						
2	Xavf 2	Chora -tadbirlar 1						
		Chora -tadbirlar 2						
		Chora -tadbirlar N						
N	Xavf N	Chora -tadbirlar 1						
		Chora -tadbirlar 2						
		Chora -tadbirlar N						

Xavf bilan bog'liq rejalashtirilgan va haqiqiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar to'ldiriladi (masalan, tovarlarni sotish narxi, tannarx, mablag'larning o'zlashtirilishi va boshqalar).

Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning tabiati belgilangan maqsadlarga erishish / erishmasligi uchun, ular yanada takomillashtirishni talab qiladimi yoki yo'qligini aks ettirgan holda tavsiflanadi.

#### 4 - Ilova. Xavflarning oldini olish Siyosatining buzilishi to'g'risida deklaratsiya

Nomutanasiblik to'g'risida qisqacha ma'lumot	Nomutanasiblik boshlangan sana	Nomutanasiblik tugallangan sana	Nomutanasiblik aniqlangan sana	Nomutanasiblik aniqlangan tarkibiy bo'linma nomi	Ma'lumot bergan xodim	Taxminiy yo'qotish (real/potentsial) (UZS) <sup>1</sup>	Huquqbuzarlik oqibatlaridan kelib chiqadigan zararni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va ijro holati

<sup>1</sup> zararni moliyaviy baholash mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar uchun